

DAVLAT BYUDJETI**Abdusattorov Sunnat**

Termiz davlat universiti talabasi.

Hojiqulova Feruz

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15670269>

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz davlat byudjeti va uning shakllanish jarayonlari shuningdek O'zbekistonning byudjet ko'rsatkichlar bilan tanishamiz.

Kalit sozlar: davlat byudjeti, byudjet profitsiti, byudjet defitsiti, ochiq byudjet, davlat qarzi, budjet.

Kirish. Budjet (qadimiy fransuzcha “baguete” – “karmon”) – belgilangan muddat (yil, kvartal) uchun ishlab chiqilgan, me'yorlashtirilgan hamda qonuniy ravishda tasdiqlangan daromadlar va xarajatlardir. Budjet davlat darajasida, shuningdek viloyat, tuman (mahalliy hokimiyat), xo'jalik subyektlari, oila yoki shaxs darajasida tuzilishi mumkin. Budjet davlat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari funksiyalarini moliyaviy ta'minlash uchun mo'ljallangan pul mablag'lari jamg'armalarini to'plash hamda sarflash shaklidir.

Davlat o'z iqtisodiy funksiyalarini bajarishda moliyaviy manba sifatida davlat budjetiga tayanadi. Davlat budjeti – davlat pul mablag'larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. Davlat budjeti mamlakat moliya tizimining markaziy unsuri bo'lib, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'z iqtisodiy mohiyatiga ko'ra davlat budjeti – bu iqtisodiyot, ijtimoiy soha, mudofaa va davlat boshqaruvi ehtiyojlarini moliyalashga mo'ljallangan budjet jamg'armasini shakllantirish hamda undan foydalanish masalalarida davlat bilan yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida yuzaga keladigan pul munosabatlaridir. Davlat budjeti mablag'lari hukumatning daromadlarni va resurslarni qayta taqsimlash funksiyasini bajarishi uchun imkoniyat yaratadi. Mamlakatimizning konsolidatsiyalashgan budjeti tarkibiga davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalarining budjetlari, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi budjetlari va davlat tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari kiradi.

O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti – davlatning o'z vazifalari va funksiyalarini moliyaviy jihatdan markazlashtirilgan pul jamg'armasidir. Davlat budjeti moliyaviy balans sifatida ikki qismdan iborat bo'lib, bu qismlar daromadlar va xarajatlar deb ataladi. Davlat budjeti daromadlari soliq va soliq bo'lmagan tushumlar hisobiga shakllanadi. Davlat budjeti daromadlari yoki budjet daromadlari – bu davlat tomonidan davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun soliqlar va soliq bo'lmagan manbalardan olinadigan pul. Davlat budjeti daromadlari, shuningdek, davlat xarajatlari davlat budjetining tarkibiy qismlari va hukumatning moliyaviy siyosatining muhim elementidir. Davlat budjeti daromadlari o'zlarining manbalari, ijtimoiy-iqtisodiy xarakteri, mulkchilik shakli, soliq va to'lovlarning turi, mablag'larning tushish shakli, ularni budjetga undirish metodlari va hokazolarga muvofiq tasniflanishi (klassifikatsiya qilinishi) mumkin. Davlat budjeti daromadlari o'z manbalariga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi: - soliq shaklidagi daromadlar; - soliq bo'lmagan daromadlar; - qaytarilmaydigan tarzda o'tkaziladigan pul mablag'lari.

Davlat budjetining soliq shaklida oladigan daromadlari tarkibi mamlakat soliq qonunchiligiga muvofiq umumdavlat soliqlari va yig'implari, mahalliy soliqlar va yig'implar, bojxona bojlari, boj yig'implari va boshqa boj to'lovlari, davlat boji, penya va jarimalardan iborat.

Soliq bo'lmagan daromadlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- davlat mulkidan foydalanishdan olingan daromadlar (soliqlar va yig'implar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq to'langan soliq va yig'implardan so'ng);
- davlat budjeti tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan to'lovli xizmatlardan kelgan daromadlar (soliqlar va yig'implar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq to'langan soliq va yig'implardan so'ng);
- fuqarolik-huquqiy, ma'muriy va jinoiy choralarni qo'llash natijasida olingan mablag'lar, jumladan, jarimalar, musodaralar, kompensatsiyalar va davlat subyektlariga yetkazilgan zararlarni tiklash bo'yicha olingan mablag'lar va majburiy undirilgan boshqa mablag'lar;
- moliyaviy yordam ko'rinishidagi daromadlar (davlat budjeti ssudalari va davlat budjeti kreditlaridan tashqari);
- soliq xarakteriga ega bo'lmagan boshqa daromadlar. Davlat budjetining daromadlar qismini to'ldirishning manbalaridan biri davlat budjeti tizimida boshqa darajada turgan budjetdan dotatsiyalar, subvensiyalar va subsidiyalar yoki mablag'larni qaytarilmaslikning boshqa shakllarida olinadigan moliyaviy yordamdir.

Davlat tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy yordamlar dotatsiya, subvensiya va subsidiya shakllarida olib boriladi. Dotatsiya – budjet tizimiga kiruvchi budjetlarga, odatda respublika budjetidan mahalliy budjetlarga ularning o'z daromadlari yetishmagan taqdirda daromadlar bilan xarajatlar o'rtasidagi farqni qoplash uchun qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'laridir. Subvensiya – muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori turuvchi budjetdan quyi turuvchi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

Subsiya – tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish va ularni realizatsiya qilishni moliyalashtirish yoki birgalikda moliyalashtirish yoxud maqsadli xarajatlarning o'rnini qisman qoplash uchun budjet tizimi budjetlari hisobidan yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan pul mablag'laridir. Bundan tashqari davlat aholini davlat transfertlari ko'rinishida himoya qiladi. Bunday moliyaviy yordamlar mablag'larni oluvchi budjetining daromadlarida o'z ifodasini topishi kerak. Jismoniy va yuridik shaxslardan, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar hukumatlaridan qaytarilmaydigan shaklda o'tkazilayotgan mablag'lar ham davlat budjetining shunday daromadlari tarkibiga kiradi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida Davlat budjetining daromadlari quyidagi manbalar hisobidan shakllantirilmoqda: - soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar; - davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan olingan daromadlar; - meros, hadya huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari; - yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushadigan qaytarilmaydigan pul tushumlari; - rezident-yuridik shaxslarga berilgan davlat budjeti ssudalarini va chet davlatlarga ajratilgan kreditlarni to'lash hisobidan to'lovlar; - qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.


O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti daromadlari quyidagi manbalar hisobidan shakllantirilmoqda: umumdavlat soliqlari, shu jumladan: yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i; yagona soliq to'lovi; jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i; qo'shilgan qiymat solig'i; aksiz solig'i; yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq; bojxona bojlari; qo'shimcha foyda solig'i; mahsulot taqsimotiga oid bitimlar bo'yicha foyda keltiradigan

mahsulotdagi davlat ulushi; boshqa daromadlar. Budget profitsiti – muayyan davrda budget daromadlarining budget xarajatlaridan ortiq bo‘lgan summasidir. Budget defitsiti (taqchilligi) – budget xarajatlarining daromadlaridan ko‘p bo‘lishidir. Budget taqchilligi rejalashtirilgan budget bilan ijro etilgan budgetning nomutanosibligi natijasida sodir bo‘ladi va xarajatlarning daromatlardan yuqori bo‘lganligini ko‘rsatadi. Davlatning budget taqchilligini qoplash kredit emissiyasi yoki boshqa manbalar, shu jumladan muomalaga turli muddatli davlat obligatsiyalarini chiqarish hamda aholi yoki yuridik shaxslar o‘rtasida joylashtirish evaziga amalga oshiriladi. Soliqlarning asosiy funksiyasi – fiskal funksiya hisoblanib (lotincha “fiscus” so‘zidan olingan bo‘lib, “xazina” degan ma‘noni anglatadi), bu funksiyaning mohiyati shundan iboratki, soliqlar yordamida davlatning moliyaviy resurslari hosil qilinadi hamda davlat faoliyat ko‘rsatishi uchun moddiy sharoit yaratiladi. Soliqlar orqali korxonalar va fuqarolar daromadining bir bo‘lagini davlat boshqaruvini, mamlakat mudofaasini, umuman ijtimoiy sohani saqlab turish maqsadida undirib olish yo‘li bilan davlat budgetining daromad qismini shakllantirish – soliqlar fiskal funksiyasining eng muhim elementi hisoblanadi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan fiskal funksiyaning ahamiyati oshib boradi. Ishlab chiqarish ijtimoiy tusdaligining chuqurlashishi fan-texnika taraqqiyotining rivojlanish munosabati bilan asosan soliqlar hisobiga shakllantiriladigan moliyaviy resurslar oqimini ko‘paytirishning real zarurati yuzaga keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga binoan soliqlar tizimi umumdavlat soliqlari hamda mahalliy soliqlar va yig‘imlarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Respublikasi hududida quyidagi soliqlar belgilanadi: 1) qo‘shilgan qiymat solig‘i; 2) aksiz solig‘i; 3) foyda solig‘i; 4) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i; 5) yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq; 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq; 7) mol-mulk solig‘i; 8) yer solig‘i; 9) ijtimoiy soliq.

Soliq turlari bo‘yicha 2023-yil davomida budgetga tushgan tushumlar 2. 2023-yilda budgetga tushgan tushumlar tarkibini tahlil etadigan bo‘lsak, foyda solig‘i 40,7 trln. so‘mni, qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi 33,9 trln. so‘mni, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasi 29,5 trln. so‘mni, yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq 15,3 trln. so‘mni, aksiz solig‘i esa 15,1 trln. so‘mni tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin. 2023-yilda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i 29518,0 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Davlat budgetiga tushumlar tarkibini soliq turlari bo‘yicha tahlil etsak, eng yuqori salmoqni foyda solig‘i, ikkinchi o‘rinni qo‘shilgan qiymat solig‘i va uchunchi o‘rinni jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i egallagan. Mamlakatimizda 2023-yilda budgetga tushgan tushumlarda soliq turlarining ulushi 8.3-rasmda keltirilgan. 2023-yilda budgetga tushgan tushumlarda eng yuqori salmoqni foyda solig‘i egallagan bo‘lib, uning ulushi 25 foizni tashkil etgan. Qo‘shilgan qiymat solig‘i esa ikkinchi o‘rinni egallab, budgetga tushgan tushumlarda 21 foizni tashkil etgan. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ulushi 18 foizni tashkil etgan Davlat budgetiga tushumlar tarkibida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i ulushi bo‘yicha uchunchi o‘rinni egallagan.

Soliq turlari bo'yicha 2023-yil davomida budjetga tushgan tushumlar (mlrd.so'mda)



Davlat qarzi va uning tarkibi. Davlat qarzi – davlatning aholi, firma, tashkilot, banklar, xorijiy moliya-kredit muassasalari oldidagi qarz majburiyatlari. Davlat o'z daromadlari bilan xarajatlarini qoplay olmay qolganda budjet taqchilligi paydo bo'ladi va u qarz olish yo'li bilan qoplanadi. Davlat qarzni turli qimmatli qog'ozlar, obligatsiyalar, zayomlar chiqarib sotish, moliya muassasasi (bank)dan ssuda olish va boshqa usullar bilan oladi. Investitsiya davlat qarzi deb hisoblanmaydi. Davlat qarzining to'lov davriga ko'ra qisqa muddatli va uzoq muddatli, tarkibiga ko'ra ichki qarz (davlat mamlakatning o'zidagi iqtisodiy subyektlardan qarzdor bo'ladi) va tashqi qarz (xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va boshqalardan qarzdorlik) kabi turlari bor. Ichki qarz va uning foizlari milliy pulda, tashqi qarz va uning foizlari esa erkin konvertatsiyalanadigan valyutada to'lanadi. 2023-yil 1-iyul holatiga O'zbekistonning davlat qarzi 31,5 mlrd AQSh dollarni tashkil etib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan 36,8 foizni (davlat tashqi qarzi – 30,2 foiz) tashkil etdi. Shundan davlat tashqi qarzi – 25,9 mlrd AQSh dollar, davlat ichki qarzi – 5,6 mlrd AQSh dollar. Ushbu ma'lumotlar Iqtisodiyot va moliya vazirligining budjetnomasida keltirilgan. Qayd etilishicha, Xalqaro valyuta jamg'armasi o'zining mamlakatlar iqtisodiyotiga bag'ishlangan hisobotida O'zbekistonning davlat qarzini "mo'tadil" deya baholagan. Bugungi kunda davlat qarzi Yalpi ichki mahsulotga nisbatan 36,8 foizni tashkil etayotgan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich 2020-yilda 39 foizni, 2021-yilda 38 foizni, 2022-yilda esa 36,4 foizni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi davlat qarzi dinamikasi 8.4-rasmda keltirilgan.

Davlat qarzining xavfsiz darajasi (YaIMga nisbatan 60 foiz)



Xulosa qilib aytganda, davlat byudjeti har bir fuqaroning turmush darajasiga ta'sir ko'rsatadigan muhim omil bo'lib, uning to'g'ri boshqarilishi jamiyat taraqqiyoti, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikning kafolatidir. Shu boisdan, davlat byudjeti faqat raqamlar to'plami emas, balki millatning bugungi va ertangi hayotini belgilovchi strategik hujjatdir. U ochiq, shaffof va samarali bo'lishi zarur, chunki u bevosita xalqning to'plagan soliqlari va boshqa daromadlar asosida shakllanadi. Byudjet siyosatida muvozanat, samaradorlik, va ijtimoiy adolat tamoyillari asosiy mezon bo'lishi lozim. Davlat byudjeti har qanday davlatda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy sohalarini rivojlantirish va aholining turmush darajasini yaxshilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. So'nggi yillarda mamlakatda byudjet siyosatini liberallashtirish, uning ochiqligi va samaradorligini oshirish bo'yicha bir qator muhim islohotlar amalga oshirildi. Xususan, "Ochiq byudjet" tizimi, fuqarolarning byudjet mablag'lari qanday taqsimlanayotgani va ishlatilayotgani ustidan nazoratini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Bu esa davlat moliyasining xalq manfaati yo'lida ishlatilishiga yo'l ochmoqda. O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti milliy iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib xizmat qilmoqda. Uni to'g'ri shakllantirish va samarali boshqarish orqali mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish, islohotlar samarasini xalq hayotida yaqqol aks ettirish mumkin. Shuning uchun, byudjet siyosatining shaffofligi, hisobdorligi va samaradorligi har doim diqqat markazida bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qodirov, M. (2021). Moliyaviy-huquqiy tizim asoslari. Toshkent: "Yangi asr avlodi".
2. O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi (oxirgi tahriri, 2024-yil). <https://lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti. (2024). Byudjet to'g'risida yillik axborotlar va hisobotlar. <https://www.mf.uz>
4. Musayev, M.M. (2020). Iqtisodiy siyosat asoslari. Toshkent: "Fan va texnologiya".
5. IMF (2023). Government Finance Statistics Manual. Washington, D.C.: International Monetary Fund.
6. Stiglitz, J. E. (2019). Economics of the Public Sector (3rd Edition). New York: W. W. Norton & Company.
7. Tanzi, Vito. (2005). Government Versus Markets: The Changing Economic Role of the State. Cambridge University Press.
8. OECD. (2022). Budgeting and Public Expenditures in OECD Countries. OECD Publishing. <https://www.oecd.org>